

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti dekani, professor, Burxanov Aktam Usmanovich taqrizi ostida

Jamolova Xonzoda O‘rolboy qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliya va buxgalteriya hisobi”
fakulteti 2-bosqich talabasi
Telefon raqam: +998931253404
researchscience02@gmail.com

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUG‘URTA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy rivojlanishning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan qishloq xo‘jaligi hamda sug‘urta sohalarining birgalikda takomillashuvining yo‘lga qo‘yilishidagi barcha nazariy qarashlar, takliflar va xulosalar, shuningdek amalyotdagi manfaatli tomonlari haqida fikr va mulohazalar yuritildi. Qishloq xo‘jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar ish jarayonida uchraydigan xatarlar aniqlandi va qanday holatlarda sug‘urtalanish mumkinligi aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, sug‘urta tarmoqlari, sug‘urta kompaniyalari, oziq-ovqat narxlari, bozor infratuzilmasi.

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL INSURANCE SYSTEM DEVELOPMENT

Abstract: In this article, all the theoretical views, proposals and conclusions, as well as opinions and comments about the stakeholders in the implementation of the joint improvement of the agriculture and insurance sectors, which are considered as the main sectors of economic development, were discussed. The risks faced by producers of agricultural goods in the course of their work were identified and the cases in which insurance is possible were shown with specific examples.

Key words: Agriculture, insurance networks, insurance companies, food prices, market infrastructure.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СТРАХОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассмотрены все теоретические взгляды, предложения и выводы, а также мнения и комментарии по поводу заинтересованных сторон в осуществлении совместного совершенствования сельского хозяйства и страхового сектора, которые рассматриваются как основные отрасли экономического развития. Выявлены риски, с которыми сталкиваются производители сельскохозяйственной продукции в процессе своей деятельности, и показаны случаи, в которых возможно страхование, на конкретных примерах.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, страховые сети, страховые компании, цены на продукты питания, рыночная инфраструктура.

Kirish

Ma’lumki, muhim bozor infratuzilmasi bo‘lmish sug‘urtani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotni baroqarorligini ta’minalash mumkin emas, shuning uchun qishloq xo‘jaligi korxonalarining barqarorligi ko‘p jihatdan sug‘urta tizimini nechog‘lik rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liq, ya’ni ularga bozor sharoitida ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarini ko‘rsata oladigan zamonaviy sug‘urta xizmatlarini

keng rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Xususan 2020-2030 yillarga móljallangan qishloq xójaligi dasturlarini samaralir amalga oshirishda suğurtaning órni judda katta: 2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘srimcha choratadbirlari to‘g‘risida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ichki bozorda aholi talabini ta‘minlash va narxlar barqarorligini saqlash hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni iqtisodiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadlari belgilab olindi”[1].

Bilamizki qishloq xójaligida risk darajasi juda katta bòlib, ob-havoning beqarorlihi tufayli ekinlarning kelgusidagi hosilini tahminiy belgilash mumkin, ammo havoning keskin sovushi yoki keskin issib ketishi bilan zarar kòrganda fermerlar ham òz daromadlari manbalaridan ayrılib qolishlari katta fojiyaga teng. Bunday vaziyatda suğurta kompaniyalari zararni qoplab berishi fermerlar uchun qòllab quvvatlash bòlib, yana qayta ekin ekin daromadlarini kòpaytirib olishlari mumkin bòladı.

Lekin shunga qaramasdan, qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash tizimini rivojlantirishning mohiyati va zaruriyati ilmiy asoslash, qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash tizimini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va unga ta‘sir etuvchi omillar tasniflash, qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash tizimini rivojlantirishning hozirgi darajasi taxlil qilish asosida qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharxi

Qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash tizimi rivojlantirish bo‘yicha xorijiy olimlardan A. Brandt, JI. Gras, F. Keppena, V. Targonskiy. B.C. Goxman, A.B. Chayanov, N.I. Gladkov va boshqalar tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Oxirgi yillarda bu yo‘nalish bo‘yicha bevosita tadqiqot mavzusiga oid 2005 yilda i.f.n., dotsent A.Yadgarov tomonidan “Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligida sug‘urta mexanizmini takomillashtirish” [2] hamda 2007 yilda A.S.Nurillaev tomonidan “O‘zbekistonda fermer va dehqon xo‘jaliklarini sug‘urtalash masalalari” mavzularida [3] ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu boisdan mamlakatimizning innovation iqtisodiyotga o‘tishi sharoitida qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash tizimini yaxlit soha sifatida hozirgi o‘zgarishlar nuqta‘i-nazardan har tomonlama chuqr ilmiy hamda amaliy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqod metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolada qishloq xójaligida suğurta tizimini takomillashtirish va bu borada jahon tajribasiga tayangan holda yurtimiz O‘zbekistonda ham uni joriy qilish , bundan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko‘riladigan manfaatlarni, foya va afzalliklarni qolaversa bu yo‘ldagi qiyinchilik, kutilishi mumkin bo‘lgan muammolar haqida fikr mulohazalar yuritish uchun vazifalar belgilab olindi . Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma’lumotlar manbalari o‘rtasidagi aloqlarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Innovasion iqtisodiyotga o‘tish jarayonida respublikamiz qishloq xo‘jaligini o‘z oldiga qo‘yan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalari shu jumladan, bank va sug‘urta sohalarini rivojlantirish va takomillashtirishga ustuvorlik berish eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror, ishonchli taraqqiyotini ta‘minlashda sug‘urta faoliyati ham alohida ahamiyat kasb etmoqda Shu sababli, qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror sug‘urta bozorining kelgusidagi rivojlanishi dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi

sohasida shu jumladan, qishloq xo‘jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilarni sug‘urtaviy himoyasini samaradorligini oshirish uning qator yangi vazifa va muammolarini hal etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Qishloq xo‘jaligi texnikasi asosan quyidagi xatarlardan sug‘urtalanishi mumkin:

- qishloq xo‘jaligi texnikasini o‘g‘irlash – sug‘urtalangan qishloq xo‘jaligi texnikasini o‘g‘irlash;
- sug‘urtalangan qishloq xo‘jaligi texnikasiga tegishli qismlar, ehtiyyot qismlar va qo‘srimcha jihozlarni o‘g‘irlash;
- bosqinchilik – sug‘urtalangan Qishloq xo‘jaligi texnikasi yoki uning qismlari, ehtiyyot qismlari, qo‘srimcha jihozlarni majburan olib qo‘yish;
- yong‘in – sug‘urtalangan qishloq xo‘jaligi texnikasining ma‘lum sabablarga ko‘ra yonib ketishi;
- portlash – agar sug‘urtalangan qishloq xo‘jaligi texnikasi gaz va bug‘ bosimining oshishi natijasida portlagan bo‘lsa, bunda portlashdan keyin yong‘in sodir bo‘lgan taqdirda sug‘urta tovoni yong‘in xavfiga qarab to‘lanadi;
- yo‘l-transport hodisalar – sug‘urtalangan qishloq xo‘jaligi texnikasining harakatlanayotganda yoki turgun holatda shikastlanishi (to‘qnashuvi, sirpanishi, turli jihozlar bilan to‘qnashishi, qulashi);
- obyektlarning ta’siri – sug‘urta qilingan qishloq xo‘jaligi texnikasiga turli xil obyektlarning tushib ketishi yoki to‘satdan urilishi natijasida sug‘urta qilingan qishloq xo‘jaligi texnikasinin shikastlanishi yoki oynaning sinishi;
- uchinchi shaxslarning qonunga xilof harakatlari – qishloq xo‘jaligi texnikasiga boshqa shaxslar tomonidan moddiy zarar yetkazilishi;
- tabiiy ofatlar – suv toshqinlari, bo‘ronlar, to‘fonlar, do‘l, ko‘chkilar, chaqmoq urishi, zilzilalar.

Qishloq xo‘jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar o‘z ishlab chiqarishi jarayonida quyidagi xatarlar bilan to‘qnashadi:- ishlab chiqarish xatarları;- bozor yoki narx-navo xatarları;- moliyaviy xatarları;- shaxs bilan bog‘liq xatarlar;- institusional xatarlar;- shartnomalari shartlarini bajarilmasligi xatari;

-mulkiy xatarlar;

Bugungi kunda yurtimizda "Özagro suğurta" kompaniyasi respublika suğurta bozorida özining nufuzli örniga ega bòlib, 187 ta xududiy bòlinmalari, 21 ta shuba korxonalari hamda 600 taga yaqin shaxobchalar orqali yuridikva jismoniy shaxslarga 90 ga yaqin suğurta turlari bilan suğurta xizmatlarini kòrsatib kelmoqda[4].

1-jadval

Qishloq, o‘mon, va baliqchilik xo‘jaligining ulushi

| T/r | Yillar | Foizlarda | Miqdori (trln so‘mda) |
|-----|--------|-----------|-----------------------|
| 1 | 2020 | 30,1 | 174,6402 |
| 2 | 2021 | 26,9 | 197,6074 |
| 3 | 2022 | 24,8 | 220,30832 |
| 4 | 2023 | 23,7 | 251,220 |

Manba: stat.uz sayt ma’lumatlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu jadvalda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining YaIMdag‘i ulushlari ifodalangan. Ko‘rishimiz mumkinki, qiymat jihatidan nisbatan o‘sib borayotgan bu ko‘rsatgichning tobora YaIMdag‘i ulushi qisqarib bormoqda. Global muammolardan biri ob-havoning keskinlashuvi ham bunga misoldir. Aynan shu jarayonning yuz berishi ham biz qishloq xo‘jaligi sug‘urtasiga muhtoj ekanimizni isbotlaydi.

Yevropa Iqtifoqining boshqa davlatlariga nisbatan Ispaniyada qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi juda rivojlangan. Chunki Ispaniyada qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmog‘i hisoblanadi. Ushbu mamlakatda deyarli barcha turdagи qishloq xo‘jalik xatarlari sug‘urtalanadi. Ko‘p sonli sug‘urta kompaniyalari assotsiatsiyalarga birlashtirilgan. Ular sug‘urta bo‘yicha talablar va strategiyalarni ishlab chiqishga hamda boshqarishga mas’uldirlar. Tabiiy ofatlar yuz bergan taqdirda fermerlarga davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy yordam ko‘rsatilmaydi. Chunki fermerlar daromadiga ta’sir etuvchi deyarli barcha turdagи xatarlar qishloq xo‘jalik sug‘urtasi orqali to‘liq qamrab olinadi. Ahamiyatlisi shundaki, Ispaniyada risk darajasi qancha katta bo‘lmashin sug‘urtadan unumli foydalanish orqali butun dunyoda qishloq xo‘jaligi bo‘yicha yetakchi o‘rnlarni egallab kelmoqda[5].

Xulosa

Albatta, agrar tarmoqning rivoji jahonda oziq-ovqat xavfsizligi tobora dozarb ahamiyat kasb etib borayotgan bir paytda juda muhim hisoblanadi. Bu o‘z navbatida sohada xatarlarni sug‘urtalashning ahamiyatini yanada oshiradi. Shuni ham ta’kidlash kerak, bugun mamlakatimiz sug‘urta bozorida qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri. Qishloq xo‘jaligi va uning sug‘urtasi ancha ilgarilab ketgan mamlakatlar tajribasi hamda yurtimiz agrar tarmog‘ining o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, yangi turdagи sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va mazkur yo‘nalishni rivojlantirishni esa davrning o‘zi taqozo etmoqda. Bunda bizga sug‘urtaning yordami juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.agros.uz/news/post/234/> 2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida
2. Ялгаров А.А. Бозор Иқтисодиёти Шароитида Қишлоқ Хўжалигида Суғурта Механизмини Такомиллаштириш. 08.00.04-Қишлоқ Хўжалиги Иқтисодиёти Ихтисослиги Бўйича Иқтисод Фанлари Илмий Даражасини Олиш Учун Ёзилган Диссертация. Тошкент - 2006 Йил.
3. Нуриллаев А.С. Ўзбекистонда Фермер Ва Дехқон Хўжаликларини Суғурталаш Масалалари” 08.00.07-Молия, Пул Муомаласи Ва Кредит Ихтисослиги Бўйича Иқтисод Фанлари Илмий Даражасини Олиш Учун Ёзилган Диссертация. Тошкент - 2007 Йил.
4. <https://www.agro.uz/11-04536129/>
5. <https://www.agros.uz/news/post/234/>
6. <https://stat.uz/uz/>